

TARJIMASHUNOSLIK

UO‘K(UDC, УДК): 821.56.18

ASLIYAT VA TARJIMA JARAYONIDA MAZMUNY SILJISHLAR¹⁶**Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,**Jahon adabiyoti kafedrası professori,**filologiya fanlari doktori,**Toshkent, O‘zbekiston**Email: gulnoz7410@mail.ru.**Orcid ID: 0000-0001-5013-0792***Sapayeva Feruza Davlatovna***O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,**Jahon adabiyoti kafedrası professori,**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,**Toshkent, O‘zbekiston**Email: feruzasapayeva86@gmail.com.**Orcid ID: 0009-0004-1079-8754***ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada avvalo, asliyat va tarjima o‘rtasidagi asosiy tafovutlar, ikki lisoniy sistemani chog‘ishtirish, shuningdek, asl nusxa tilida mavjud bo‘lgan axborot vositalarining tarjima tilida mavjud emasligi, asl nusxa tilida mavjud bo‘lmagan axborot vositalari tarjima tilida mavjudligi, ikki tilning qaysi axborot vositalarini taxminan ekvivalent hisoblasa bo‘lishi kabi bir qancha muammolar, ularni ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganish, adabiy-madaniy aloqalar tarixini yoritishda, adabiy ta’sir shakllari, ularning o‘zaro diffuziyasi, adabiy an’ana va unga munosabat masalalari ochib berildi. Maqolada tarjima imkon qadar asl matnga yaqin va to‘g‘ri bo‘lishi kerakligi, she’riy asarlar tarjimasida ekviritmiyaga ham e’tibor qilish kabi dolzarb muammolar tadqiq qilinadi. Shuningdek, tarjima nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, jumladan – qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti ekanligi haqidagi fikrlar asoslanib, ilgari suriladi. Xullas, asliyat ruhini imkon qadar to‘g‘ri va to‘la aks ettiradigan tarjima matnini yaratish uchun tarjimon ham talantli badiiy so‘z ustasi, ham iste’dodli tarjimashunos olim bo‘lishi kerakligi va unga munosabat masalalari tadqiq qilindi. Mazkur maqolada asliyat va tarjima tillarining uslubiy hamda grammatik tizimidagi tafovutlar tarjimaning adekvatlik darajasini belgilovchi omil sifatida talqin qilinib, ularni hisobga olish zarurligi qat’iy ta’kidlanadi.

KALIT SO‘ZLAR

She’r, tarjimon, tarjima, she’riy takror, bayt va band, ma’no, shakl va mazmun, so‘z, tarjima qilish, matn, shoir, Maxtumlul, turkman tili, o‘zbek tili.

Received: September 8, 2025**Accepted:** October 11, 2025**Available online:** November 16, 2025¹⁶ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xalliyeva G., Sapayeva F. Asliyat va tarjima jarayonida mazmuniy siljishlar.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 4(8) — B. 212-223.

CONTENT MOVEMENTS IN THE ORIGINAL AND TRANSLATION PROCESS

Xalliyeva Gulnoz Iskandarovna

*Uzbek State World Languages University,
Professor of the Department of World Literature,
Doctor of Philological Sciences,
Tashkent, Uzbekistan*

Email: gulnoz7410@mail.ru.

Orcid ID: 0000-0001-5013-0792

Sapayeva Feruza Davlatovna

*Uzbek State World Languages University,
Professor of the Department of World Literature,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences,
Tashkent, Uzbekistan*

Email: feruzasapayeva86@gmail.com.

Orcid ID: 0009-0004-1079-8754

ABSTRACT

This article primarily addresses several issues: the main differences between the original and translated texts, the comparison of two linguistic systems, the absence of information resources in the target language that are present in the source language, the presence of information resources in the target language that are absent in the source language, and which information resources of the two languages can be considered approximately equivalent. It explores these as subjects of scientific research, illuminating the history of literary and cultural connections, forms of literary influence, their mutual diffusion, literary traditions, and attitudes towards them. The article examines crucial issues such as the need for translations to be as close and accurate to the original text as possible, and the importance of maintaining rhythm in the translation of poetic works. Furthermore, it substantiates and advances the idea that translation is not only an object of linguistics but also of literary studies, including comparative literature. In essence, the article investigates the notion that to create a translated text that accurately and fully reflects the spirit of the original, the translator must be both a talented master of artistic expression and a skilled translation scholar. It also explores attitudes towards this concept. This article interprets the stylistic and grammatical differences between the source and target languages as factors determining the degree of translation adequacy, emphasizing the necessity of taking these differences into account.

KEY WORDS

Poem, translator, translation, poetic repetition, couplet and stanza, meaning, form and content, word, translation, text, poet, Makhtumkuli, Turkmen language, Uzbek language.

ОРИГИНАЛЬНОСТЬ И СМЫСЛОВЫЕ СДВИГИ В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

Халлиева Гульноз Искандаровна

*доктор филологических наук,
профессор кафедры тировой литературы,
Узбекский государственный университет мировых языков,
Ташкент, Узбекистан*

Email: gulnoz7410@mail.ru.

Orcid ID: 0000-0001-5013-0792

Сапаева Феруза Давлатовна

*доктор философии по филологическим наукам,
профессор кафедры тировой литературы,
Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан*

Email: feruzasapayeva86@gmail.com.

Orcid ID: 0009-0004-1079-8754

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В данной статье в центре внимания находятся основные различия между оригиналом и переводом, сопоставление двух языковых систем, а также трудности, связанные с отсутствием в языке перевода информационных средств, имеющих в языке оригинала, наличием в языке перевода информационных средств, отсутствующих в языке оригинала, и определением приблизительно эквивалентных средств-носителей информации в обоих языках. Эти явления рассматриваются в качестве объекта научного исследования с привлечением данных об истории литературно-культурных связей, формах литературного влияния, их взаимной диффузии, литературной традиции и отношении к ней. В статье исследуются такие актуальные проблемы, как необходимость достижения максимального соответствия перевода оригиналу и его точности, а также уделяется внимание значению эквивалентности при переводе поэтических произведений. Кроме того, в работе выдвигаются и обосновываются идеи о том, что перевод является объектом не только лингвистики, но и литературоведения, в частности сравнительного литературоведения. В заключение авторы статьи затрагивают проблему профессиональных компетенций переводчика, который для создания переводного текста, максимально точно и полно отражающего дух оригинала, должен быть как одаренным мастером художественного слова, так и талантливым ученым-переводоведом. В данной статье разница в стилистической и грамматической системе языков оригинала и перевода интерпретируется как фактор, определяющий уровень адекватности перевода, и последовательно отмечается необходимость его учета.	Стихотворение, переводчик, перевод, поэтический повтор, бейт и строфа, смысл, форма и содержание, слово, текст, поэт, Махтумкули, туркменский язык, узбекский язык.

KIRISH

Asl nusxa va tarjima o'rtasidagi asosiy tafovutlar, avvalo, ikki til o'rtasidagi farqlarda namoyon bo'ladi. Ba'zi so'zlar bir tilda boshqa ma'noda, ikkinchi tilda boshqa ma'noda kelishi mumkin. Bir tilda ijobiy mazmunda qo'llanadigan so'z boshqa tilda salbiy ma'no bildirishi mumkin, deb bu tafovutlarni ming yil burun Abu Rayhon Beruniy ham ko'rsatib ketgan edi. Chunonchi, tarjimashunos Zuhridin Isomiddinovning yozishicha, *jo'ra* so'zi *o'zbeklarda* erkaklarga nisbatan qo'llansa, *turkmanchada* u *dugona* ma'nosida keladi. Yoki *olchoq* so'zi *bizda* *muttaha*m, *pastkash*, *ablah* kimsani bildirsa, *turkmanchada* *xushfe'l*, *ko'ngli ochiq* kishini anglatadi. Qirg'izchada esa *qatiqni ayron* deyishadi (Исмиддинов З., 1980, 157-159). *Qizg'anmoq* – *o'zbekchada* *qizg'anish*, *tatarchada* *rahm qilish*; *yurt* – *o'zbekchada* *xalq*, *o'lka*, *jamoat*, *vatan*, *tatarchada* *o'y fikr*, *quyma* – *o'zbekchada* *holva*, *tatarchada* *devor*; *qir* – *o'zbekchada* *tepa*, *yaylov*, *tatarchada* *chet*, *qirra* va *hokazo*. Binobarin, o'zaro o'xshashligiga ishonib, bu so'zlarni shundoqqina o'zbek tiliga ko'chirib qo'yib bo'lmaydi.

Bir tilda ko'p ma'noli bo'lgan so'z boshqa tilda faqat bir ma'noni bildirishi mumkin yoki aksincha. Bu tarjimada ma'noning torayishi yoki kengayishiga olib keladi.

ASOSIY QISM

Sinonimlar – ma'nodosh so'zlar ham har bir tilning boyligi. Masalan, "*Boburnoma*"da "*o'ldi*" so'zi 27 xil ifodalangan ekan: *o'ldi*, *vafot etdi*, *dunyodan o'tdi*, *shunqor bo'ldi*, *shahodat sharbatini ichdi*, *juvonmarg bo'ldi*, *boqiy dunyoga rixlat qildi*, *bu dunyoi foniyni tark etdi*, *jon qushi tan qafasini tark etdi*, *ajal sharbatini ichdi*, *jonini jabborga topshirdi* va hokazo. Bu so'zning dunyodagi biror tilda shuncha ko'p ma'nodoshlari bo'lmasa kerak.

"*Boburnoma*"ning ellikdan ortiq sahifasida "g'arib" so'zi kelib, turli-tuman ma'no ifodalagan. Ingliz mutarjimlari asar tarjimasida g'arib ma'nosidagi 35 ta so'z va iboradan foydalanishgan (Собиров М., 2002.,11-12).

L.Tolstoyning "*Anna Karenina*" romani tarjimasida M.Ismoilov *сербце сжалос* so'zini bir yerda *yuragi dukurlab ura boshladi*, boshqa bir yerda esa *yuragi*

suyunganidan o'ynab ketdi deb tarjima qiladi. Chunki birinchi o'rinda u – shubha, ikkinchisida esa – quvonch ma'nosida kelgan. Yoki: *Куда глаза глядят* iborasi esa *boshi oqqan tomonga* deb tarjima qilinadi. “Ikki lisoniy sistemani chog'ishtirish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin: a) ikki tilning qaysi axborot vositalarini taxminan ekvivalent hisoblasa bo'lishi; b) asl nusxa tilida mavjud bo'lgan qanday axborot vositalarining tarjima tilida mavjud emasligi; v) asl nusxa tilida mavjud bo'lmagan qanday axborot vositalari tarjima tilida mavjudligi” (Саломов F. 1978, 50). Ba'zi tillarda u yoki bu narsa, hodisa, unsur, a'zoni bildiradigan so'zlar bo'lmaydi. Har qanday ikki tilning grammatik qurilishi o'rtasida ham muayyan tafovutlar bo'ladi. Albatta, yaqin tillar bundan mustasno. Lekin o'zaro uzoq tillar ham ba'zan uslubiy tuzilishi jihatidan mushtarak bo'lishi mumkin. Masalan, ruschadan o'zbekchaga tarjimada gapning oxiridan oldinga qarab kelinadi. Holbuki, tojikchaga tarjimada buning aksi, ya'ni rus va tojik tillarida jumla tuzish qolipi deyarli o'xshash. Bunga tillardagi uslubiy va grammatik tafovutlar sabab bo'ladi.

Tarjimaning muhim muammolaridan biri bu turli tillardagi frazeologizmlar (maqol, matal, idioma) tarjimasidir. K.Chukovskiy iloji boricha maqollarni so'zma-so'z tarjima qilishga intilish kerakligini aytadi. Chunki “ularda xalqning tug'ma xususiyati, fikrlashning milliy uslubi o'z ifodasini topgan bo'ladi”. “Biroq, – deb yozadi G'.Salomov, – boshqa tillarda shunday maqol va matallar ham borki, ulardan kelib chiqadigan hikmat hijjalab qilinadigan tarjima ichidagi so'zlarda o'z in'ikosini topmaydi. Ana shunday maqol va matallar juda ko'pdir. Shunday qilib, boshqa tillardagi ko'plab maqol, matal va idiomalarda aks etgan hikmatni ularning ona tilimizdagi muqobillari bilan almashtirish vositasidagina ro'yobga chiqarish mumkin” (Саломов F., 1989, 244). Ma'lum bo'ladiki, tarjimaning lisoniy (lingvistik) muammosi faqat ikki tilni bilish bilan chegaralansa, g'ayrilisoniy muammolari nihoyatda ko'p ekan: bu – ikki adabiyot, ikki madaniyat, ikki tarix, ikki xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, diniy e'tiqodi va marosimlari...

Bundan tashqari, ilmiy tarjimada turli ilmlardan, publitsistik tarjimada kechayotgan voqealardan, badiiy tarjimada adabiy-estetik qonuniyatlardan xabardor bo'lish taqozo qilinadi. Sof ilmiy asarlar va rasmiy uslubdagi hujjatlarni nazardan

soqit qilganda, aksar matnlar turli darajadagi uslubiy bo‘yoqqa ega bo‘ladi, ularda his-hayajon, kinoya piching, turli so‘z o‘yinlari, nozik ishoralar aks etadi. Badiiy adabiyot-ku obrazli iboralar, badiiy san’atlar, uslubiy bo‘yoqlar asosida ish ko‘radi, unda so‘zlar ming bir ma’noda tovlanadi, ko‘pincha so‘zlar o‘z lug‘aviy ma’nosida kelmaydi...

Ko‘rinadiki, tarjima – oson ish emas, tarjimonlik – mashaqqatli kasb. Mutarjim faqat tilni bilibgina qolmay, tarix, falsafa, estetika, adabiyot, dinlar, urf-odatlar kabi ko‘pdan-ko‘p narsalarni ham bilishi kerak.

Aynan tarjimonning chuqur bilimi, keng dunyoqarashi, katta hayotiy tajribasi tarjimaning muvaffaqiyatini ta’minlaydigan asosiy omil hisoblanadi. Xalq tabiati, jonli tilini yaxshi biladigan tarjimon tarjima asarning hayotiyligi, xalqchilligi, tushunarligini oshirish uchun lug‘atlarda yo‘q so‘zlar, iboralarni izlab topadi. Bu uning til sohasidagi ijodkorligidir.

Muallif va mutarjimning ruhan yaqinligi, hamfikrligi, uslublarining mushtarakligi esa har qanday tarjimaning chinakam yutug‘i hisoblanadi. Buni tarjimashunoslikda “muallif va mutarjim yulduzining bir-biriga to‘g‘ri kelishi” deyiladi. Bunday ijodiy muvofiqlik natijasida bunyod etilgan tarjimalar bizda ko‘p. Masalan, Maxtumdul asarlari tarjimalari, Alisher Navoiy asarlari tarjimalari, E.Vohidov tarjimasidagi Gyotening “Faust”i va S.Yesenin she’rlari, A.Oripov tarjimasidagi Dantening “Ilohiy komediya”si, Q.Quliyevning “Hayrat” she’ri, A.Qahhor tarjimasidagi Chexov hikoyalari, M.Kenjabek tarjimasidagi Pushkinning “Yevgeniy Onegin” romani, Xurshid tarjimasidagi Hofiz Sheroziy g‘azallari, Sh.Shomuhamedov tarjimasidagi Xayyom ruboiylari, Mirtemirning ko‘plab tarjimalari va boshqalar.

Ayni paytda, bu borada ruhiyat va uslub nomuvofiqligi jihatidan muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalar ham yo‘q emas. Chunonchi, Maxtumdulining milliy va ichki ruhiyatini o‘zbekcha she’rlari tarjimalari, ba’zida qoraqalpoq va ozar tillardagi tarjimalari, S.Salim Buxoriy Gyotening jo‘shqin ruhini “G‘arbu Sharq devoni” tarjimasida berolmagan, hassos shoirni tarjimada bosiq donishmandga aylantirib qo‘gan bo‘lsa, E.Vohidovning M.Svetlov she’rlaridan qilgan tarjimalari

ham muvaffaqiyat qozonolmadi. Sh.Shomuhamedov ham tarjimada Bedil ruboiylarning mazmuniy teranligi, ko‘p ma’noliligi, badiiy yuksakligini berolmay, ma’nolar otasi deb Sharqda ulug‘langan shoirni o‘rtamiyona bir ijodkor darajasiga tushirib qo‘ydi. Adib Sobir Termiziy asarlari tarjimasi ham muvaffaqiyatli chiqmagan (xususan, E.Pardayev tarjimasidagi ruboiy va qit‘alari)...

Tarjima jarayonida tarjimon katta rol o‘ynaydi: uning tilni nechog‘lik bilishidan tortib, iste’dodi, bilimi, dunyoqarashi, saviyasi, asl nusxaga munosabati, uslubi, ruhiyati... bu kabi barcha omillar u yoki bu darajada tarjimada o‘z aksini topadi. Bizda tarjima sifati va tarjimon mahorati doirasida bu masalalarning ko‘pi muayyan darajada tadqiq etilgan. Ayni paytda, o‘rganilmagan va e’tibordan tushib qolgan omillar ham yo‘q emas. Masalan, Xo‘ja Alimovning fikricha, “biz tarjimonni ko‘p tomonlama o‘rganishimiz mumkin. Masalan, fiziologik, biologik, falsafiy, genetik-tarixiy, milliy va irqiy tomondan va hokazo” (АЛИМОВ Х., 1985, 258) X.Alimov badiiy tarjima psixologiyasi muammosini o‘rganib, qiziq kuzatishlarni ilgari suradi: uzoq muddat bir muallif asarlarini tarjima qilish natijasida uning ta’siriga tushish (A.Oripov “Jannatga yo‘l” asarining yaratilishida “Ilohiy komediya”ning tarjimasida, E.Vohidovning “Sen yaxshisan, men yomondurman” she’rining yozilishida “Faustning ta’siri mavjud); “Tarjimonga xos milliy xususiyatlar va uni o‘rab turgan muhitning tarjimaga ta’sir etishi” va “tarjimon yoshining tarjimaga ko‘rsatgan ta’siri”. O‘zaro suhbatda Abdulla Oripov unga qiziq bir voqeani aytib beradi: “1966-yilda, shoir endi 25 yoshga to‘lganda onasi vafot etadi. Mana shu musibatli voqea ta’siri ostida u o‘zining “Onajon” she’rini yozgan. Bir qancha vaqt o‘tgach, mazkur she’r rus tiliga tarjima qilingan. Tarjimonning yoshi o‘sha paytda 50-60 lar chamasida bo‘lgan. O‘zbek shoirining aytishicha, bu uning she’rlaridan qilingan tarjimalar ichida muvaffaqiyatsiz chiqqan tarjimalardan biri ekan. Bu dalilni yoshi bir joyga borib qolgan tarjimonning onadan judolikda paydo bo‘ladigan favqulodda qayg‘uli hissiyotni aynan idrok qila bilmaganligi bilan tushuntirsa bo‘ladi” (АЛИМОВ Х., 1985, 261-262). Yoki xalq o‘rtasida *o‘zbekning to‘g‘ri gapi yo‘q*, degan bir hikmat yuradi. Buning ma’nosi ko‘pgina o‘zbekcha so‘zlar ko‘p ma’noli bo‘lib, ularni har tarafga bursa, turlicha talqin qilsa bo‘ladi.

Xo'sh, sinonimlarga boy bo'lmagan bir tilga o'zbekcha ko'p ma'noli so'zlarni o'girsas, matnning butun ma'no qirralari aks etadimi? "Ma'lumki, xalqlarning turmush tarzi, tirikchilik sharoitlari, urf-odat, rasm-rusum, irim-chirim, udumlarida juda katta farqlar borki, mavjud rosmnana lug'atlardan ularning nomlariga muqobil so'z topib bo'lmaydi, basharti, topilgan taqdirda ham ulardan foydalanish qiyin, negaki, bunday so'z asarda tasvirlangan voqeaga o'zgacha milliy ma'no berishi mumkin" (Саломов F., 1978, 54).

Har qanday tilning ham umumiy va xususiy jihatlari mavjud: tildagi umumiyliklarni boshqa tilda berish qiyinchilik tug'dirmagani holda, xususiyliklar tarjimonni mushkul ahvolga solib qo'yadi. Bu har bir tilning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, u yoki bu tilga xos ko'p ma'nolik, so'z o'yinlari, ma'no tovlanishlarini boshqa tilda aslidagiday aks ettirish nihoyatda qiyin, ba'zan hatto mumkin emas. Masalan, turkiy she'riyatda tajnis san'ati keng ishlangan. Bu san'at omonimlar – shakldosh so'zlar asosiga quriladi. Shu asosda tuyuq janri kelib chiqqan. Tuyuqni faqat turkiyshunos olim Sergey Ivanovgina tarjima qilishning uddasidan chiqqan, deyish mumkin. Ma'lumki, tildan tashqari jihatlarni yaxshi bilmaslik (o'zga xalq madaniyatini yaxshi anglamaslik) tarjimaga putur yetkazadi. Tarjima jarayonida qonuniy muvofiqlik nazariyasi (теория закономерных соответствий) mavjud. Bu nazariyaning asosiy mohiyati kelib chiqishi jihatidan muvofiq va muvofiq bo'lmagan tillar orasidagi tarjima bilan bog'liq. Yana shunga alohida diqqat qilinishi lozim, tarjima nazariyasida transformatsion, semantik-semiotik, situativ va kommunikativ modellar mavjudligini bilganimiz holda, tarjimaning transformatsion modeli – boshqa tilga tarjima qilinganida tilning o'z holatini qanday saqlab qolish darajasidir. Tarjimaning semantik (ma'no) – semiotik (belgilar sistemasi) modeli – asliyat semantikasining tarjimada saqlanish darajasi bilan belgilanadi. Tarjimaning situativ modeli esa – tarjimada ayrim vaziyatlarni (masalan, milliy-madaniy) hisobga olib, tarjima qilinishini nazarda tutadi. Tarjimaning kommunikativ modeli tarjimada o'sha xalqning madaniyatini hisobga olish va o'zga tilga adaptatsiyasi masalasidir.

Bilamizki, tarjimaning to'rtta lingvistik jihati mavjud: leksik-semantik, frazeologik, grammatik, stilistik. Leksik-semantik jihat – tarjimada mumkin qadar asliyatning ma'noviy mazmunini, lingvistik strukturasini saqlab qolinishidir. Frazeologik jihat – tarjimada frazeologizmlarning ekvivalentini topish masalasi. Ushbu yo'nalishdagi muhim muammo madaniy-milliy koloritni tarjimada bera olish malakasi bilan bog'liq. Grammatik jihat asliyatning va tarjimaning grammatik qonuniyatlari, gap qurilishiga mos kelish va kelmasligi bilan bog'liq. Tarjimada stilistik jihat emotsional bo'yoqdorlikni, yozuvchi uslubining qay darajada saqlanishi va berilishi bilan bog'liq. Masalan, Umar Hayyom ruboiylari tarjimasida Shoislom Shomammedov stilistik jihatni maksimal darajada saqlagan.

Shuni aytish kerakki, tarjimada adekvatlik barcha talablarni saqlagan holda, jumladan, kommunikativ muloqotni ham hisobga olib qilingan tarjimadir. Tarjima jarayonida adekvatlikka erishish vositalariga quyidagilar mansubdir:

1. Referensial vositalar bu belgilar, ma'lum ramzlar va boshqa vositalardir. Referensial vositalar asosan ilmiy adabiyotlar yoki tarixiy asarlarda bo'ladi, ularni tarjima qilish jarayoni nisbatan oson kechadi.

2. Pragmatik vositalar bu so'zlashish jarayonidagi stilistik va emotsional vositalar. Bu vositalar kommunikativ jarayonning yetakchisi hisoblanadi. Masalan, dialoglar, aytishuvlar, ichki nutq va h.k.

3. Grammatik vositalar. Har bir tarjimonga o'z tilining grammatik qonuniyatlari asosida tarjima qilishga yordam beruvchi vositalar.

Tarjima imkon qadar original asarga yaqin va to'g'ri bo'lishi kerak. She'riy asarlar tarjimasida ekviritmiyaga ham e'tibor qilish darkor. Ekviritmiya (lotincha "to'g'ri ritm") – ritm (ohang)ni saqlagan holatda tarjima qilish demakdir.

Noto'g'ri tarjima noto'g'ri talqinni yuzaga keltiradi. Albatta, tarjima "qurbonlarsiz" bo'lmaydi, ammo yuqoridagi jihatlarni hisobga olmaslik, tarjimani asliyatdan ancha uzoqlashtiradi.

Tarjima nazariyasiga oid ilmiy kitoblarda ko'pincha IY, PYA kabi abriveaturalarga duch kelamiz: IYA – isxodniy yazik (original tili), PYA – perevodniy yazik (tarjima tili) demakdir.

Tarjima nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik, jumladan – qiyosiy adabiyotshunoslik obyektidir.

Chunki asarning o‘zi va tarjimasi qiyoslash uchun asos vazifasini bajaradi. Tarjimani qiyosiy adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganayotgan tadqiqotchi, albatta, bu boradagi nazariy adabiyotlar bilan tanishishi, original asar va tarjimada aynan nimani qiyoslash kerakligini anglab yetishi kerak.

Adabiyotshunos M.Topperring “Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik tizimida” nomli ilmiy asarida tarjimaning komparativistika obykti sifatidagi xususiyatlari juda yaxshi ochib berilgan (Топер П.М., 2000).

Bizga ma’lumki, tarjima mohiyatan kommunikatsiya (o‘zaro muloqot) va retsepsiya (tarjimaning qabul qilinishi) kabi jarayonlardan iborat. Xuddi shu jarayonlar qiyosiy adabiyotshunoslik uchun ham xos bo‘lib, ikkita har xil millatga mansub adabiy asarni taqqoslash jarayonida, albatta, bu jarayonlar tahlil qilinadi. Masalan, Nosir Zohid va amerikalik yozuvchi Viktoriya Shvabning turlicha nomdagi “Qasos” romanlarini o‘zbek va xorij kitobxoni bir xil qabul qiladi, bu – retsepsiya jarayoni. Har ikkala romanni taqqoslashga kirishish – ikki millat, ikki madaniyat, ikki yozuvchi o‘rtasidagi kommunikatsiya. Demak, birgina kommunikatsiya va retsepsiya tushunchalarining mavjudli tarjimani qiyosiy adabiyotshunoslik obykti sifatida o‘rganishga to‘la asos beradi. M.Topperring fikricha, qiyosiy adabiyotshunoslik metodologiyasi jahon adabiyotidagi turli xil milliy adabiyot namunalarini qiyoslash imkonini beradi, bu esa tarjimashunoslikka bo‘lgan e’tiborni oshiradi (Топер П.М., 2000, 19).

XULOSA

Badiiy asar tarjimasi bilan shug‘ullanmoqchi bo‘lgan tadqiqotchi asosan quyidagi jihatlarni qiyosan o‘rganishi mumkin:

1. Original asar va tarjimaning muvofiqligi.
2. Yozuvchi va tarjimonning ijodiy individualligi.
3. Adabiy aloqa va tarjima.
4. Asar va uning retsepsiyasi (qanday edi, qanday qabul qilindi?).
5. Tarjima va adabiy ta’sir masalasi.

6. Janrlararo tarjima: lirik, epik, dramatik tur janrlari tarjimalarida o'xshashlik va farqlar.

7. Tarjima va madaniyatlararo kommunikatsiya .

8. Badiiy tarjimada lisoniy olamning qayta yaralishi muammosi.

9. Yozuvchi va tarjimon mahorati va h.k. masalalar.

Yuqorida tilga olingan jihatlarning barchasida qiyosiy metoddan va metodologiyaning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, modellashtirish va boshqa nazariy metodlaridan foydalaniladi.

Tarjima qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti sifatida o'rganilganda, ushbu tadqiqot xuddi boshqa komparativistik tadqiqotlarda bo'lgani kabi tarixiy, gno-seologik, mantiqiy, metodologik, ma'naviy-g'oyaviy mezonlar orqali baholanadi.

Xullas, "asliyat ruhini imkon qadar to'g'ri va to'la aks ettiradigan tarjima matnini yaratish uchun tarjimon ham talantli badiiy so'z ustasi, ham iste'dodli tarjimashunos olim bo'lishi kerak" (Мусаев Қ., 2005, 334).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Исмиддинов З. "Алдоқчи сўзлар билан баҳс"//Таржима санъати. (Мақолалар тўплами) 5-китоб. – Тошкент, 1980.
2. Собиров М. "Бобурнома"нинг инглизча таржималарда муаллиф услуби ва бадииятини қайта тиклаш муаммолари. НДА. – Тошкент, 2002.
3. Саломов Ғ. Tarjima nazariyasiga kirish – Т.: Ўқитувчи, 1978.
4. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Т.: Фан, 1989.
5. Алимов Х. Таржимон руҳияти // Таржима санъати (Мақолалар тўплами). 6-китоб. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985.
6. Топер П.М. Перевод в системе сравнительного литературоведения. – М., 2000. – С. 19.
7. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 334.

REFERENCES

1. Ismiddinov Z. (2018). "Debate with Deceptive Words"//The Art of Translation. (Collection of articles) Book 5. Тошкент.
2. Sobirov M. (2022). Problems of restoring the author's style and artistry in English translations of "Baburnama". NDA. Тошкент.
3. Salomov G'. (1978). Introduction to Translation Theory T.: O'qituvchi.
4. Salomov G'. (1989). Language and Translation. T.: Fan.
5. Alimov X. (1985). The Psychology of a Translator // The Art of Translation (Collection of Articles). Book 6. Tashkent: Gafur Gulyam Publishing House of Literature and Art,
6. Toper P.M. (2000). Translation in the system of comparative literary studies. M. P.19.
7. Musayev Q. (2005). Fundamentals of Translation Theory. Tashkent: Fan. P.334.